

## XORIJIIY TIL O'RGANISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI

Mamadayupova Vasila Shonazarovna,  
TDYU, Xorijiy tillar kafedrasida katta o'qituvchisi

## Annotatsiya

Til o'rganish jamiyatning muhim sohalaridan hisoblanadi. Muloqot vositasi bo'lmish tilni tabiiy muhitda (oilada, jamoatchilik orasida) yoki amaliy mashg'ulotlar orqali egallash mumkin. Til hodisalariga oid bilimlar esa nazariy jihatdan o'rganiladi. Xalqaro munosabatlar avj olgan bir paytda tillarni bilish, ayniqsa, ko'p tillilik (poliglossiya) ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur maqolada xorijiy tilni egallashning psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi. Psixologiyaning ta'limdagi o'rni va uning pedagogika va tilshunoslik bilan aloqasini o'rganiladi. Shuningdek maqolada xorijiy tillarni o'qitishda psixologik nazariyalarni qo'llash usullari, o'qituvchining kasbiy til kompetensiyasi, hamda chet tillarini o'rganish motivatsiyasi muhimligi ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** umumiy psixologik jarayonlar, muloqot psixologiyasi, psixologik to'siq, til o'rganish amaliy jarayonlari.

Insoniyat yaralibdiki odamlar bir-birlari bilan o'zaro til orqali muloqot qilib keladilar. Til bu xalqlarning bir-biriga bog'lovchi betakror fenomen hisoblansa, boshqa tarafdin, turli millatlarni o'ziga xosligini ko'rsatuvchi noyob hodisadir. Bugungi kunda til o'rganish juda ham muhim vazifalardan hisoblanadi. Tarixdan malumki, qaysi xalq vakillari qancha ko'p til bilsa shuncha tez va mukammal taraqqiyot yo'liga chiqq olganlar. Xo'sh chet tillarini o'rganish bizga nima beradi? Va nima uchun muhim hisoblanadi? Bu savolga shunday javob berishimiz mumkin. Birinchi navbatda, chet tillarini o'rganish bu boshqa madaniy muhitga kirish imkoniyatini beruvchi, nihoyatda mazmunli hayot kechira olish imkonini beruvchi omildir. Har bir inson hayotida til juda muhim rol o'ynaydi. Xalqimiz orasida "Til bilgan- el biladi" degan purma'no fikr bejiz aytilmagan.

Ma'lumki, chet til o'rgatish va o'rganish jarayoni bevosita ruhshunoslik bilan bog'liq bo'lib, u nutq psixologiyasi va pedagogik psixologiya bilan aloqa bog'laydi. Inson nutqi nutq fiziologiyasi (lingvofiziologiya)da, nutqning sodir bo'lishi va uni idrok etish psixolingvistikada ilmiy tadqiq qilinadi. Barcha tillarda nutq til materiali va uning mexanizmlari vositasida yuzaga keladi. Nutq inson bosh miyasi faoliyati boshqaradigan murakkab ruhiy jarayondir. Miyaning analiz-sintez qila olishi zamirida birinchi va ikkinchi signal sistemalari faoliyat ko'rsatadi. Birinchi signal sistemasi eshituv, ko'ruv, hid va ta'm bilish va boshqa sezgilar yordamida tashqi dunyoni his etib, bilishga imkon beradi. Ikkinchi signal sistemasi esa til belgilari orqali voqelikni umumlashtirish asosida ish ko'radi. Birinchi signal sistemasi hayvonot dunyosiga ham taalluqli. Ikkinchi signal sistemasi esa birinchi signallar signali bo'lib, so'z bilan ifodalanadi. Inson, hayvondan farqli o'laroq, nutqni idrok etganida, uning mazmuniga e'tibor beradi. Nutqning tovush va harfiy jihatlari uning tashqi (moddiy) tomoni deyiladi. Ichki tomoni esa nutq-harakat, eshitish, ko'ruv va qo'l harakati timsollarida ifodalanadi. Har ikkalasi nutqiy dinamik stereotipni tashkil etadi. Stereotiplarning ishlashi til vositalari sifatida nutq mexanizmini hosil qiladi. Ona tilida belgilar stereotiplari va nutq mexanizmlari tafakkur va nutqning shakllanish jarayonida beixtiyor hosil bo'ladi.

Ingliz tilini o'rganishning asosiy psixologik jihatlari quyidagilardir: til o'rganishga qiziqish, til o'rganish qobiliyati, til va nutqning nisbati, til to'sig'i. Ular orasida til o'rganish motivatsiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday faoliyat kabi, inson biror narsani qilishni xohlamagan holda, yoki uni tashqi muhitdan kelgan kuchli bosim ta'sirida bajarsa, yuqori natijaga erisha olmaydi. Bu o'rinda muvaffaqiyatli natijaga erishish motivatsiyaning kuchi tufayli kuzatiladi. Ko'plab mashhur insonlarning hayotini o'rganar ekanmiz, motivatsiyaning o'rni naqadar beqiyosligiga guvoh bo'lamiz. Masalan, dunyo tanigan Amerikalik, yo'rug'lik lampasi ixtirochisi Tomas Edisonning onasi o'g'li o'qiydigan maktab ma'muriyatidan yuborilgan, o'g'li to'g'risida juda salbiy fikrlar to'la bo'lgan xatni o'qib, yurakdan xafa bo'lgan, lekin farzandiga xatni mazmunini umuman o'zgartirib, ya'ni "Sen donosan, seni buyuk ishlar kutyapti, ustozlaring va men sen bilan faxrlanamiz bolam", degan fikrlari o'ta sho'x, topolonchi, qaysar bolaning hayotda yaxshi tomonga o'zgartirib, mashxurlik darajasiga yetkizgan edi...

Shuningdek, ushbu o'rinda internet tarmoqlari xususida qisqacha to'xtalib o'tsak. Bugungi kunda ushbu tizimning kishilar hayotining barcha jabhalariga kirib borgan va ta'lim sohasi ham bundan

mustasno emasligi hammamizga ma'lum. Onlayn o'qitish asosan oflayn kurslarning foydali qo'shimchasi yoki ilgari aralash o'qitishning bir shakli bo'lib xizmat qildi, ammo epidemiyaning to'satdan avj olishi onlayn o'qitishni to'liq, rivojlangan bosqichga olib chiqdi. Milliy onlayn kurs uzoq muddatli oflayn ta'lim jarayonida nafaqat cheksiz qulaylik, balki talabalar psixologiyasiga ma'lum o'zgarishlar olib keldi. Xususan, chet tilini o'qitish o'ziga xos intizomli xususiyatiga ega bo'lib, o'qituvchi-o'quvchi, o'quvchi-o'quvchi o'rtasida yuqori darajadagi o'zaro munosabatlarning yangi ko'rinishini shakllantirdi.

Savol tug'iladi. Qanday qilib hech qanday til to'siqlarisiz ingliz tilini o'rganish mumkin? Javob oddiy: ko'proq amaliyot! Yuqorida aytib o'tilganidek, til o'rgatuvchi bilan mashg'ulotlar, imkon bo'lsa inglizxabon xalq vakillari bilan muloqot, shuningdek, xorijiy tildagi kitoblarni asl nusxasini mustaqil o'qish, filmlarni tomosha qilish, ingliz tilida sevimli musiqani tinglash kabilar chet tilni o'rganishdagi eng samarali usullari bo'lib qoladi. Sayohat ham nutq mahoratini oshirish uchun ajoyib imkoniyat hisoblanadi. Ushbu jarayon til o'rganuvchiga mahalliy aholi bilan suhbatlashib, ko'plab yangi so'z va iboralarni oson o'rganish imkoniyatini beradi.

Ta'lim psixologiyasini chuqurroq tushunish uchun uning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini to'g'ri aniqlashni talab qiladi. O'quvchilarning qobiliyatlarini yaxshiroq tushunish uchun har bir o'qituvchi professional mahoratga ega bo'lishi, har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini bilishi va har biriga individual yondashishi lozim.

Xulosa o'rnida aytish joizki, til bilish har bir inson uchun yangi imkoniyatlar, muvaffaqiyatlar kalitidir. Inson qancha ko'p til bilar ekan, unga dunyo eshiklari ochiladi. Aynan til bilish dunyoni anglash demakdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Тальскова Н. Д. Современная методика обучения иностранным языкам: Пособие для учителя. — 2-е изд. — М.: АРКТИ, 2003. - 162 с.
2. Alyamkina E.A. Qobiliyat, mayl va iste'dodning o'zaro bog'liqligi va ularning universitet o'quv jarayonida rivojlanishi / Alyamkina E.A.// Psixolog. – 2015. – № 2. – С. 31-46.
3. Galskova N.D. Chet tillarni o'qitish nazariyasi. Lingvodidaktika va metodologiya / N.D.Galskova. – М.: Академия, 2008. – 336 с.
4. Zaripova R. A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma, — T.: O'qituvchi, 1986. — 184 b.
5. Kudysheva, A. A. Psychology of teaching foreign languages, 2010.